

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

MUHANDISLIK QURILISH INFRASTRUKTURASI FAKULTETI

“Geodeziya va kadastr” kafedrası

“Himoyaga ruxsat etildi”
MQIF dekani
dots. S.A. Tashpo‘latov

“_____” _____ 2016 y.

5311500 – “Geodeziya, kartografiya va kadastr” yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr
darajasini olish uchun bajarilgan diplom loyihasi

TUSHUNTIRISH XATI

Diplom loyihasining mavzusi: **“Toshkent shahrida joylashgan “ALFA GROUP
BUSINESS” ma'suliyati cheklangan jamiyatga qarashli binolar kadastrini
tuzish va baholash”.**

Tushuntirish xati 74- bet
Chizmalar slayd shaklida
taqdim etiladi.

Loyiha muallifi 3b-10 GKK

Qurbonnazarov Dilmurod

Buxar o‘g‘li _____

Loyiha rahbari:

katta o‘qituvchi Avezboev O.S. _____

“GvaK” kafedrası “_____” _____ 2016 y. №__ bayonnomasi
bilan “himoyaga tavsiya etilgan”
kaf. mudiri _____ B. Nazarov

Toshkent 2016 y.

TOSHKENT ARXITEKTURA QURILISH INSTITUTI
MUXANDISLIK QURILISH INFRASTRUKTURASI FAKULTETI

“Geodeziya va kadastr” kafedrası

Yo‘nalish: 5311500- “Geodeziya, kartografiya va kadastr”

“TASDIQLAYMAN”

Kafedra mudiri _____

“__” _____ 20__ yil.

DIPLOM LOYIHASI BO‘YICHA TOPSHIRIQ

Talaba **Qurbonnazarov Dilmurod Buxar o‘g‘li**

1. Diplom loyihasining mavzusi: **“Toshkent shahrida joylashgan “ALFA GROUP BUSINESS” ma'suliyati cheklangan jamiyatga qarashli binolar kadastrini tuzish va baholash”.**

Rektorning 19.12.2015 yil. 2/404 sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

2. Bitiruv ishini old himoyaga taqdim etish muddati _____.

3. Mavzu bo‘yicha dastlabki ma’lumotlar beruvchi adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi vazirlar Maxkamasining 1996 yil 17 iyuldagi 255- sonli karori buyicha kabul kilingan “Yagona davlat kadastr tizimi” Nizom

2. Nishonboev N. Davlat kadastr asoslari. Toshkent. TAQI. 2007y.

3. To‘ychiev N.J., Mirxoshimov A.M., Plaxtiy K.A. Ko‘chmas mulkni baholash asoslari. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent: Adolat, 2000y.

4. Vremennyy sbornikssn na obmernyye raboty, raboty po obsledovaniyu, otsenke i sostavleniyu pasporta zdaniya (soorujeniya) dlya sozdaniya kadastra nedvijimosti. Toshkent: Uzgeokadastr, GKKINP-18-015-99, 1999g. (utverjden 5 aprelya 1999 g.).

4. Diplom loyihasining maqsadi va hal qilinadigan masalalar:

“Toshkent shahrida joylashgan “ALFA GROUP BUSINESS” ma'suliyati cheklangan jamiyatga qarashli binolar kadastrini tuzish va baholash” dan iborat bo‘lib unda quyidagi masalalar echilishi ko‘zda tutilgan. Davlat kadastr haqida tushuncha, Davlat kadastrlarini yuritishni nazorat qiluvchi qonunchilik aktlari , kadastr ob‘ektlariga bulgan xujjatlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, bino va inshootlar davlat kadastr, uning mazmuni, mohiyati, yuritish tamoyillari , binolar va inshootlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, bino va inshootlar kadastrini yuritishni tashkil etish, bino va inshootlarni baxolash Bino va inshootlarni baza narxida baholash, bino va inshootlarni baxolash va kayta baxolash ishlarini bajarish tartibi, bino va inshootlarni ulchashdagi ko‘rsatgichlar baxolashdagi territorial koeffitsentlar kapital guruxini belgilash kabi masalalarni yoritish ko‘zda tutilgan.

5. Grafik qism materiallar ro'yxati:

1. Yer uchastkasi chegaralarini shakl-tasviri
2. Er uchastkasi joylashgan xudud tafsiloti
3. Ob'ekt joylashgag xuduning bosh rejasi.
4. Binolarning chizmasi.

6. Diplom loyihasini bajarish rejasi:

No	Bosqichlar nomi	Bajarish muddati	Bajarilganlik belgisi (rahbar imzosi)
1.	Davlat kadastr haqida tushuncha		
2.	Davlat kadastrlarini yuritishni nazorat qiluvchi qonunchilik aktlari		
3.	Kadastr ob'ektlariga bulgan xujjatlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish		
4.	Bino va inshootlar davlat kadastr, uning mazmuni, mohiyati, yuritish tamoyillari		
5.	Binolar va inshootlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish		
6.	Bino va inshootlar kadastrini yuritishni tashkil etish		
7.	Bino va inshootlarni baxolash		
8.	Bino va inshootlarni baza narxida baholash		
9.	Bino va inshootlarni baxolash va kayta baxolash ishlarini bajarish tartibi		
10.	Bino va inshootlarni o'lchashdagi kursatgichlar baxolashdagi territorial koeffitsentlar kapital guruxini belgilash		
11.	Ko'chmas mulk ob'ektiga kadastr ishi tuzish		
12.	Ob'ektning inventar narxlash xisoboti		
13.	Diplom loyihasiining matn va grafik qismini rasmiylashtirish		
14.	Diplom loyihasi bo'yicha taqdimotni tayyorlash		

Diplom loyihasi rahbari: Katta o'qituvchi Avezboev O.S.._____

Topshiriqni bajarishga oldim _____ "___" _____ 20__yil

MUNDARIJA

KIRISH

1-BOB. DAVLAT KADASTRI ASOSIY TUSHUNCHALAR		
1.1.	Davlat kadastr haqida tushuncha.....	
1.2.	Davlat kadastrlarini yuritishni nazorat qiluvchi qonunchilik aktlari.....	
1.3.	Kadastr ob'ektlariga bo'lgan xujjatlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish.....	
1.4.	Bino va inshootlar davlat kadastr, uning mazmuni, mohiyati, yuritish tamoyillari.....	
1.5.	Binolar va inshootlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish.....	
1.6.	Bino va inshootlar kadastrini yuritishni tashkil etish.....	
2-BOB. KO'CHMAS MULK OB'EKTLARINI BAHOLASH		
2.1.	Bino va inshootlarni baholash.....	
2.2.	Bino va inshootlarni baza narxida baholash.....	
2.3.	Bino va inshootlarni baholash va kayta baholash ishlarini bajarish tartibi.....	
2.4.	Bino va inshootlarni ulchashdagi ko'rsatgichlar baholashdagi territorial koeffitsentlar kapital guruxini belgilash.....	
3-BOB. KO'CHMAS MULK OB'EKTIGA KADASTR XUJJATI		
3.1.	“ALFA GROUP BUSINESS” ma'suliyati cheklangan jamiyat ining kadastr ishi.....	
3.2.	Er uchastkasi chegaralarini shakl-tasviri.....	
3.3.	Er uchastkasi burilish nuqtalari va chegaralarining ta'rifi.....	
3.4.	Er uchastkasi chegaralarini aniqlash va kelishish dalolatnomasi.	
3.5.	Er uchastkasi joylashgan xudud tafsiloti.....	
3.6.	Bino va inshootlar xisob varaqasi.....	
3.7.	Xonalarning ichki o'lcham qaydnomasi.....	
3.8.	Davlat ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim qilingan xujjatlar ro'yxati.....	
3.9.	Davlat mulki bo'lgan er uchastkasiga ____ - sonli ijara shartnoma namunasi.....	
3.10.	Ob'ektni inventar narxlash xisoboti.....	
	Xulosa	
	Foydalanilgan adabiyotlar	
	Ilovalar	

KIRISH

O'zbekistonda bozor isloxotlarining rivojlanishi ko'chmas va ko'char mulkning va ularga nisbatan xuquqlar qiymatini baholash bo'yicha yangi faoliyat turining shakllanishiga olib keldi. Baholash faoliyati iqtisodiyotni islox qilish va xuquqiy davlat qurishning ajralmas qismiga aylandi. Ko'chmas mulk qiymatini baholashning maqsad va vazifalarini, usullarini mulk turlarini baholashning o'ziga xos xususiyatlarini batafsil o'rganish baholash faoliyatini nafaqat bozor infratuzilmasining amaliy tarmog'i sifatida, balki amaliy iqtisod fanining ilmiy-uslubiy yo'nalishi sifatida tushunish imkonini beradi.

Respublikada ko'chmas mulkni baholash xizmatlariga bo'lgan talab bozor iqtisodiyotiga o'tishning dastlabki kunlaridanoq paydo bo'ldi. Davlat ko'chmas mulkini xususiylashtirishning kengayishi, korxonalar ustav sarmoyasiga kiritiladigan ko'chmas mulkning ko'payishi, ko'chmas mulkni garovi ostida kreditlashning rivojlanishi va birinchi navbatda mulkdorlar sinfini shakllantirish xamda rivojlantirishga yo'naltirilgan ko'chmas mulk bilan bajariladigan boshqa fuqarolik xuquqiy operatsiyalar baholash tuzulmalarining majburiy tarzda ishtiroki bilan amalga oshiriladi.

O'tgan yillarda amalga oshirilgan ko'chmas mulk ob'ektlarini baholash faoliyati uni respublika iqtisodiyotini islox qilish modelining o'ziga xos xususiyatlari va xorijiy mamlakatlarda baholash ishlarining ko'p yillik tajribasini inobatga oluvchi mustaxkam uslubiy asosda rivojlantirish zarurligini taqqazo etadi.

Respublikada mulkni baholovchi mutaxassislarni tayyorlash bilan band bo'lgan tuzishlar mulkchilikning turli ob'ektlarini baholash sohasidagi ta'lim dasturlarini faol ishlab chiqmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2000 yilda qabul qilingan "Davlat kadastrlari to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 17 iyuldagi 255-sonli "O'zbekiston Respublikasida Davlat kadastrlarining yagona tizimini yaratish bo'yicha Nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori va boshqa qator qonun hamda me'yoriy xujjatlarga binoan mamlakatimizda er, suv, o'rmon va

avtomobil yo‘llari kadastrlarini yuritishga bo‘lgan munosabat har tomonlama o‘zgardi.

Davlat er, suv, o‘rmon va bino va inshootlar davlat kadastrlari Davlat kadastrlarining yagona tizimi tarkibiga kiritildi, ularda bajariladigan ishlar hajmi kengaytirildi, ahamiyati oshirildi. SHuning uchun ham er, suv, o‘rmon va avtomobil yo‘llari davlat kadastrlari, ularning mazmuni va mohoyati, tarkibiy qismlari, yuritish tamoyillari to‘g‘risida qisqacha to‘xtalib o‘tish joizdir.

SHuni alohida e‘tirof etish zarurki, respublikamiz hududida mavjud tabiiy resurslar, inshootlar va hududlarni majmualari tarzda o‘rganish, yagona uslubiyat asosida ularning huquqiy holatlari, miqdorlari va xususiyatlari to‘g‘risida zaruriy ma’lumotlar to‘plash, ularni yagona tizimga keltirish davlatimiz uchun muhim siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga egadir. Shu bilan birga bu – mamlakatimiz mavjud salohiyatini aniqlashga imkon beradi. Shu jihatdan ham boshqa qator rivojlangan mamlakatlar singari respublikamizda davlat kadastrlari yagona tizimini yuritish muhim ahamiyat kasb qiladi. Shu nuqtai nazardan, ushbu malakaviy bitiruv ishi “Toshkent shahar Mirzo Ulug‘bek tumani Feruza-2 mavzesida joylashgan «SAMO» mas’uliyati cheklangan jamiyatga qarashli binolar kadastrini tuzish va baholash” ga qaratilgan bo‘lib, ob’ektga tegishli ma’lumotlarni to‘plash, kadastrini tuzish va baholash kabi masalalarni yoritishdan iborat.

1-BOB. DAVLAT KADASTRI ASOSIY TUSHUNCHALAR

1.1. Davlat kadastrı haqida tushuncha

Kadastrini yuritish davlatning vujudga kelishi va soliq tizimini rivojlantirilishi bilan birlamchi zaruriyatga aylandi. Jamiyat rivojining ma'lum bosqichida er maydonlarining miqdori bilan bir qatorda sifat holati ham hisob-kitob qilina boshladi, keyinchalik esa turlicha unumdorlikka ega bo'lgan erlardan olinayotgan foyda miqdorini ham hisob qilish zaruriyati tug'ildi.

“Kadastr” so‘zi, fransuzcha so‘z bo‘lib, u ma'lum bir ob'ekt bo'yicha davriy yoki uzluksiz kuzatuv va nazorat qilish yo'li bilan olingan ma'lumotlarning mujassamlashgan yig'indisini bildiradi.

Ma'lumki, tabiiy yoki moddiy resurslardan oqilona hamda samarali foydalanishni tashkil etish va nazorat qilish xalq xo'jaligining istiqbolda yanada rivojlanishi uchun ilmiy asoslangan rejalar tuzishda hisob-kitob ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yishda muhim ahamiyatga egadir.

Ijtimioiy ishlab chiqarish jarayonlariga rahbarlik qilish va nazorat qilish maqsadida ushbu jarayonlarni miqdor va sifat jihatidan tavsiflash xalq xo'jaligi hisobi asosida amalga oshiriladi. Bizning mamlakatimizda ham boshqa rivojlangan davlatlar singari iqtisodiyot tarmoqlari hisobining yagona tizimi mavjud bo'lib, u respublikamizning hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida ma'lum yo'nalishda rivojlanishini taminlashda muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Er uchastkalari turli o'lchamlarda, shakllarda, rel'efda, tuproqlarda, tabiiy o'tlar va gidrografik sharoitda uchraydi. Er maydonlarining kenglik sharoiti qishloq xo'jaligida katta ahamiyatga ega, negaki ular ishlab chiqarish jarayonlariga emas, balki butun qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishga ta'sir ko'rsatadilar. Er uchastkalarining o'lchamlari, shakllari, joyning rel'efi va urning boshqa xususiyatlari ishlab chiqarish vositalari hamda ishlab chiqarishni tashkil etish xarakterini belgilaydi, mehnat unumdorligiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bularning barchasi er maydonlarining kenglik sharoitini hisobga olish zarurligini ko'rsatadi, hamda shu bilan birga er kadastrini turli plan-xaritalar yordamida yuritish imkonini beradi.

Er resurslaridan to'g'ri, oqilona hamda samarali foydalanish – iqtisodiyot ahamiyatiga molik bo'lgan muammodir. Bu esa o'z navbatida iqtisodiyotdagi mavjud erlarni imkoni boricha tarmoqlararo optimal tarzda taqsimlashni, mumkin qadar kamroq xarajatlar sarflagan holda har gektar er maydoni hisobiga ko'proq miqdorda qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirishni, tuproq unumdorligini saqlash va muntazam ravishda, ilg'or agrotexnik tadbirlar asosida, oshirib borishni bildiradi. Bu muammoni hal qilish er kadastrini to'liq hajmlarda o'tkazish zarurligini tug'diradi.

Davlat erning yagona to'laonli egasi sifatida er fondini boshqarishni amalga oshiradi. Bu esa o'z navbatida er kadastriga davlat ahamiyatini beradi. Uning ma'lumotlari, birinchi navbatda, er uchastkalariga bo'lgan huquqlarni ro'yxat qilish, er resurslarini davlat tomonidan boshqarishni yanada takomillashtirish maqsadlarida foydalanibgina qolmasdan, balki erlarga davlat egaligi huquqini muhofaza qilish maqsadlarida, shuningdek, boshqa mulkdorlar va foydalanuvchilar huquqlarini ham muhofaza qilishda foydalaniladi. SHu nuqtai nazardan xam er kadastri ma'lumotlari faqatgina iqtisodiy ahamiyatga molik bo'libgina qolmasdan, huquqiy ahamiyatga ham egadir.

Er kadastri ma'lumotlari davlat yoki boshqa jamoat maqsadlari uchun er ajratishni asoslashda ham katta ahamiyatga egadir. Xalq xo'jaligi manfaatlari nuqtai nazardan yuqorida qayd qilingan maqsadlar uchun birinchi navbatda qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida yaroqsiz bo'lgan yoki kam yaroqli bo'lgan, shuningdek, hech bir sub'ektga ajratib berilmagan erlarni ajratish maqsadga muvofiqdir. SHu sababli bunday masalalarni hal qilishda er fondining haqiqiy holati, taqsimoti va amaldagi foydalanishi to'g'risida, shuningdek qishloq xo'jalik erlarining mahsuldorligi to'g'risidagi ma'lumotlarga zaruriyat tug'iladi. Bu ma'lumotlar er ajratishning maqbul echimlarini asoslash uchun xam zarurdir.

"Er kodeksi, Soliq kodeksi, "Davlat kadastri to'g'risida"gi qonunlarni amalyotga tadbiq qilish, qishloq xo'jaligida agrar islohatlarni amalga oshirish birinchi galda er kadastri ma'lumotlariga asoslanadi.

1.2. Davlat kadastrlarini yuritishni nazorat qiluvchi qonunchilik aktlari

Bunday qonunchilik aktlariga “ Davlat kadastri to‘g‘risida”gi qonun va boshqa qonun osti me‘yoriy hujjatlari kiradi.

Ushbu qonunining maksadi davlat kadastrlarini yuritish, kadastrga doir axborotni tuplash va undan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir.

Davlat kadastrlari to‘g‘risidagi qonun xujjatlari ushbu qonun va boshqa qonun xujjatlaridan iboratdir.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining davlat kadastrlari to‘g‘risidagi qonun xujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha koidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

Davlat er kadastri Davlat kadastrlari yagona tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi xamda u davlat kadastri yuritiladigan tabiiy, xo‘jalik ob‘ekti yoki boshqa ob‘ekt muayyan turining geografik joylashuvi, huquqiy makomi, miqdor, sifat tavsiflari va bahosi to‘g‘risidagi yangilanib turiladigan ma‘lumotlar va xujjatlar tizimidan iborat bo‘ladi.

Davlat kadastrlarining yagona tizimi O‘zbekiston Respublikasi va uning ayrim xududlari tabiiy-iktisodiy saloxiyatining yagona umumdavlat hisob-kitobi yuritilishini, baholanishini ta‘minlashga mo‘ljallangan ko‘p maqsadli axborot tizimi tarzida yaratiladi.

O‘O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi xuzuridagi Geodeziya, kartografiya va davlvt kadastri bosh boshqarmasi davlat kadastrlarni yuritish sohasidagi maxsus vakolatli organi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi xuzuridagi Geodeziya, kartografiya va davlat kadastri bosh bosharmasi:

- vazirliklar,davlat qo‘mitalari, idoralar va maxalliy davlat xokimiyati organlarining davlat kadastrlarini yuritish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi;
- Davltv kadastrlari yagona tizimini yuritadi;

-vazirliklar,davlat qo'mitalari va idoralarni tegishli davlat kadastrlarini yuritish uchun zarur bo'lgan kartografiya materiallari bilan belgilangan tartibda ta'minlaydi;

-davlat kadastrlari yuritilishiga doir normativ xujjatlarni belgilangan tartibda tasdiqlaydi;

-mutaxassislar tayyorlash va malakasini oshirish ishlarini tashkil qilish.

-qonun xujjatlariga muvofik boshqa vazifalarni amalga oshirishi.

Maxalliy davlat xokimiyati organlari:

-kadastr ob'ektlariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan utkazishni tashkil etadilar;

-davlat er kadastrini, binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritish ishlarini qonun xujjatlarida belgilangan tartibda maxalliy byudjet hisobidan moliyalashtiradilar;

-tegishli xududlar davlat kadastrining yuritilishini tashkil etadilar;

-qonun xujjatlariga muvofik boshqa vakolatlarga oshiradilar

Davlat kadastrlarini yuritish Davlat kadastrlarini yuritish tegishli vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar va maxalliy davlat xokimiyati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat kadastrlarini yuritishga quyidagilar kiradi:

kadastr ob'ektlariga bo'lgan mulk huquqi va boshqa huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish;

kadastr ob'ektlarining mikdor va sifat tavsifini hisobga olish;

kadastr ob'ektlarini sifat va kiymat jixatidan baholash;

kadastrga doir axborotni tizimga solish, saqlash va yangilab borish;

kadastr ob'ektlarining holati haqida hisobotlar tuzish;

davlat kadastrlari yagona tizimiga kiritish uchun tegishli axborot takdim etish;

foydalanuvchilarni qonun xujjatlarida belgilangan tartibda kadastrga doir axborot bilan ta'minlash.

Kadastr ob'ektlarining mulkdorlari xamda kadastr ob'ektlariga doir boshqa huquqlarning egalari tegishli vazirliklar, davlat qo'mitalari,idoralar maxalliy davlat xokimiyati organlariga kadastr ob'ektlarining geografik joylashuvi, xukiy

miqdor, sifat tavsiflari va bahosi to'g'risida, shuningdek ularning xolatidagi joriy o'zgarishlar xakida axborot takdim etishlari shart.

Davlat kadastrlarini yuritish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan tasdiklanadi.

Davlat kadastrlarini yuritilishini moliyalashtirish davlat byudjeti tomonidan amalga oshiriladi.

Kadastr ob'ektlariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan utkazish yuridik va jismoniy shaxslarning kadastr ob'ektlariga bo'lgan huquqlari davlat tomonidan e'tirof etilishi va tasdiklanishining yuridik xujjati hisoblanadi.

Kadastr ob'ektlariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan utkazish xujjatlar bilan tasdiklangan axborotlarni davlat reestrlariga kiritish yuli bilan amalga oshiriladi.

Kadastr ob'ektlariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan utkazish kadastr ob'ektlarining barcha mulkdorlari va kadastr ob'ektlariga doir boshqa huquqlarning egalari uchun majburiydir.

Kadastr ob'ektlarini hisobga olish vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, maxalliy davlat xokimiyati organlarining tegishli bulinmalari tomonidan kadastr ob'ektlarining chegaralari doirasida, shuningdek aholi punktlari, tumanlari, mintakalar, tabiiy va iktisodiy tegralar xamda O'zbekiston Respublikasi bo'yicha ularning xolati undagi va undan foydalanilishiga ko'ra boriladi.

Kadastr ob'ektlarini sifat jixatidan baholash tabiiy va jismoniy tavsiflari asosida amalga oshiriladi.

Kadastr ob'ektlarini kiymat jixatdan baholash ularning uziga xos xususiyatlarini hisobga olgan xolda qonun xujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

1.3. Kadastr ob'ektlariga bo'lgan xujjatlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish

Kadastr ob'ektlariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan utkazish yuridik va jismoniy shaxslarning kadastr ob'ektlariga bo'lgan huquqlari davlat tomonidan e'tirof etilishi va tasdiklanishining yuridik xujjati hisoblanadi. Kadastr ob'ektlariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan utkazish xujjatlar bilan tasdiklangan axborotlarni davlat reestrlariga kiritish yuli bilan amalga oshiriladi.

Kadastr ob'ektlariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan utkazish kadastr ob'ektlarining barcha mulkdorlari va kadastr ob'ektlariga doir boshqa huquqlarning egalari uchun majburiydir. Kadastr ob'ektlarini hisobga olish vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, maxalliy davlat xokimiyati organlarining tegishli bulinmalari tomonidan kadastr ob'ektlarining chegaralari doirasida, shuningdek aholi punktlari, tumanlari, mintakalar, tabiiy va iktisodiy tegrallar xamda O'zbekiston Respublikasi bo'yicha ularning xolati undagi va undan foydalanilishiga ko'ra boriladi.

Kadastr ob'ektlarini baholash sifat va kiymat jixatidan baholashni o'z ichiga oladi. Kadastr ob'ektlarini sifat jixatidan baholash tabiiy va jismoniy tavsiflari asosida amalga oshiriladi. Kadastr ob'ektlarini kiymat jixatdan baholash ularning uziga xos xususiyatlarini hisobga olgan xolda qonun xujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Kadastr xujjatlari

Kadastr ob'ektiga bo'lgan mulk huquqini va boshqa huquqlarni tasdiklovchi xujjatlar, ob'ektning kadastr xaritasi (plani), kadastr kitobi, kadastr ob'ektlarining asosiy turlaridir. Kadastr yigmajildi kadastr ob'ektiga bo'lgan huquqni shakllantirish, hisobga olish va keyinchalik davlat ro'yxatidan utkazish uchun zarur bo'ladigan kadastr ob'ektini kadastr suratiga olish, texnik inventarizatsiya kilish va pasrportlashtirishning, maxsus tekshirish va izlanishlarning, sifat va kiymat jixatidan baholashning xujjatlari, materiallari va ma'lumotlaridan iborat bo'ladi.

Kadastr xaritasi (plani) kadastr ob'ektlari joylashgan erni, ularning chegaralari, muxofaza chegaralari, baholash, mikdor va sifat tavsiflarini aks ettiruvchi grafik chizma xujjati hisoblanib, u kadastr ob'ektlarining geoegrafik joylashuvi, huquqiy

makomi, mikdor xamda sifat jixatdan tavsiflari va bahosi xakidagi ma’lumotlardan iborat bo’ladi.


Kadastr ob’ektlarining xolati to’g’risidagi hisobot davlat kadastrining xar bir turi bo’yicha belgilangan tartibda tuziladi xamda kadastr ob’ektlarining aloxida xududlar va butun O‘zbekiston Respublikasi bo’yicha mikdor va sifat xolati, bahosi xakidagi ma’lumotlar ni uz ichiga oladi.

Davlat kadastrlariga doir axborotni takdim etish.

Davlat kadastrlariga doir axborotni davlat xokimiyati organlarini bepul, boshqa va jismoniy shaxslarga esabelgilangan tarzda xak evaziga takdim etiladi. Davlat bir yaratilgan davlat kadastriga doir axborotdan foydalanish qonun xujjatlari bilan tartibga solinadi.

Davlat kadastrlari to’g’risidagi qonun xujjatlarni buzganlik uchun javobgarlik. Davlat kadastrlari to’g’risidagi qonun xujjatlarning buzilishida aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo’ladilar.

**Davlat kadastrlari yagona tizimini yuritish
SXEMASI**



CHiqindilarni ko‘mish va utilizatsiya qilish joylari kadastri	Davlat tabiatni muhofaza qilish qo‘mitasi
Tabiiy xavf yuqori bo‘lgan zonalar kadastri	Vakolatli organ
Texnogen xavf yuqori bo‘lgan zonalar kadastri	Vakolatli organ
Kartografiya-geodeziya kadastri	"Ergeodezkastr" davlat qo‘mitasi

1.4. Bino va inshootlar davlat kadastri, uning mazmuni, mohiyati, yuritish tamoyillari

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida bozor munosabatlarining rivojlan borish er munosabatlarini tubdan qayta qurish bilan bir qatorda ushbu er maydonlari bilan mustahkam bog'liq bo'lgan ko'chmas mulklar, ya'ni bino va inshootlar hamda ular bilan bo'ladigan turli harakatlarni tartibga solishni talab qiladi. Bu esa, o'z navbatida Davlat kadastrlarining yagona tizimi tarkibida bino va inshootlar davlat kadastrini yuritilishini taqozo qiladi.

Bino va inshootlar davlat kadastini yuritish tizimi – bu kadastr axborotlarini to'plash, qayta ishlash, hisobga olish, bir tizimga keltirish, saqlash, yangilab turish va foydalanuvchilarga berishdan iboratdir.

Binolar vka inshootlar davlat kadasti binolar inshootlardan samarali foydalanishni va ularni muhofaza qilishni, mulk egalarining va shu ob'ektlardan boshqa foydalanuvchilarning huquqlarini, shuningdek binolar va inshootlarga egalik huquqi va boshqa ashyoviy huquqlar davlat ro'yxatidan o'tkazilishini ta'minlash uchun yuritiladi. Binolar va inshootlar davlat kadastri ma'lumotlari barcha davlat organlari, yuridik va jismoniy shaxslar uchun majburiy yuridik kuchga egadir. Kadast xujjatlari binolar va inshootlar bilan fuqarolik-huquqiy bitishuvlarni amalga oshirishda, ularni soliqqa tortishda, loyihalashtirishda va boshqa yuridik xarakatlarda huquqiy, iqtisodiy va texnik ma'lumotlar sifatida qabul qilinadi.

Binolar vainshootlar davlat kadastrini yuritish bu ob'ektlar to'Orisidagi kadastr ma'lumotlarini shakllantirishdagi ishonchli xujjatlar va boshqa ma'lumotlardan foydalanilgan holda amalga oshiriladi.

Bino va inshootlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi shaxslar davlat ro'yxatidan o'tkazishda qonun buzilishlarini bilib qolgan taqdirda, bu to'g'rida tegishli davlat organlariga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga yoki proko'raturaga xabar berishlari kerak bo'ladi. Mulk ega bo'lgan yoki binolar va inshootlarga ashyoviy huquqlarga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar ularga tegishli binolar va inshootlar davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi xujjatlarga ega bo'lishlari kerak. Odatda bino va inshootni davlat ro'yxatidan o'tkazish majburiyati mulk

egasiga yoxud bino yoki inshootga ashyoviy huquqlarga ega bo'lgan shaxsga yuklanadi. Ular bino yoki inshootni davlat ro'yxatidan o'tkazish yuo'yicha barcha yoki ayrim majburiyatlarini uchinchi shaxslarga yuklashlari mumkin. Bu huquqlar va majburiyatlarni ro'yobga chiqarish qonun xujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Binolar va inshootlar meros qilib olingan taqdirda binolar va inshootlarga egalik huquqi yoki boshqa ashyoviy huquqlar merosxo'rga yoki davlatga qonunchilikda belgilangan tartibda o'tganda keyin davlat ro'yxatidan o'tkaziladi. Binolar va inshootlar davlat kadastrini tashkil etish va yuritish tuman, shaxar ko'chmas mulk kadastr xizmatiga yuklanadi. Bu xizmat kadastr xujjatlarini va kadastr ma'lumotlarini ruxsatsiz olish va oshkor etishdan himoya qilinishini ta'minlashi zarur.

Binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritish ham an'anaviy (kadastr kitobida ro'yxatdan o'tkazish, kadastr planiga kiritish) ham avtomatlashtirilgan (ma'lumotlarning kompyuter bankini yaratish) usullarda amalga oshiriladi.

Binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritish uch bosqichda amalga oshiriladi:

- bosqich – binolar va inshootlarning tuman, shaxar darajasidagi huquqiy, xo'jalik va me'moriy-qurilish maqomi to'g'risida ma'lumotlar tuplash va kadastr kitobida ro'yxatdan o'tkazish;
- bosqich – ob'ektlarni chizmad joylashtirgan holda kadastr planini tuzish;
- boskich – oldingi bosqichlarda olingan ma'lumotlarni hisobga olgan tarzda ma'lumotlarning kompyuter bazasini yaratish.

Binolar va inshootlar davlat kadastr ma'lumotlari tumanlar, shaxarlar bo'yicha tuziladi, ularning xududi hisobga olish, uchastkalariga bo'linadi. Tumanlar, shaxarlar va boshqa aholi yashash punktlarining kadastr bo'linishi chegaralarni belgilash va xududlarni tuman doirasida yoxud shaxar, posyolka chegaralarini hisobga olish uchastkalariga bo'lishni bildiradi. Koraqalpog'iston Respublikasiga, viloyatlarga Toshkent shaxriga, tumanlar, shaxarlar va aholi yashash punktlariga, shuningdek hisobga olish uchastkalariga kadastr ishlarini yuritish maqsadlarida yagona tizim bo'yicha kadastr raqami(kodi) beriladi.

1.5. Binolar va inshootlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish

Bino va inshootlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish ma'lumotlari binolar va inshootlar davlat kadastrining asosini tashkil etadi. Binolar va inshootlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish belgilangan tartibda ajratilgan er uchastkasida bino yoki inshoot qurib bitkazilgandan so'ng yoxud qonun xujjatlarida nazarda tutilgan tartibda va shartlarda bitishuvlar sodir etilgandan so'ng amalga oshiriladi. Binolar va inshootlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tuman, shaxar kadastr kitobida, turar joy binolari va inshootlari tuman reestr daftarida amalga oshiriladi.

Binolar va inshootlar texnik inventarizatsiyadan o'tkazish byurolari tomonidan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan taqdirda ular tegishli ko'chmas mulk kadastr xizmatiga binolar va inshootlar davlat reestrini yuritish uchun zarur bo'lgan hajmdagi davlat ro'yxatidan o'tkazish ma'lumotlarini beradilar. Davlat ro'yxatidan o'tkazishda kadastr yoki reestr daftariga binolar va inshootlarga egalik huquqini yoxud boshqa ashyoviy huquqlar (ularning paydo bo'lishi, boshqa shaxsga o'tishi, cheklanishi va to'xtatilishi) haqidagi shuningdek ob'ektni tavsiflovchi boshqa ma'lumotlar to'g'risidagi ma'lumotlar yozib qo'yiladi. Mahfiylik rejimiga ega bo'lgan binolar va inshootlar maxsus kadastr daftarida ro'yxatga olinadi. Uni yuritish xususiyatlari va bu ob'ektlarni ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha ma'lumotlardan foydalanish shartlari qonun xujjatlarida belgilanadi.

Davlat ro'yxatidan o'tkazishda belgilangan tartib-qoidaga binoan, kadastr daftariga binolar va inshootlarning huquqiy, xo'jalik va me'moriy-qurilish maqomi to'g'risidagi ma'lumotlar kiritiladi. Bu ma'lumotlar asosan quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- binolar va inshootlar joylashgan joy, ularning egalik huquqi yoxud boshqa ashyoviy huquqlar bilan yuridik va jismoniy shaxslarga tegishliligi, bu huquqlarning paydo bo'lish asoslari va muddatlari, ularning to'xtatilishi muddatlari, egalik huquqini va boshqa ashyoviy huquqlarni cheklash shartlari, bu ob'ektlarga uchunchi shaxslarning huquqlari to'g'risidagi ma'lumotlar binolar va inshootlarning huquqiy xolati haqidagi ma'lumotlar hisoblanadi;

- binolar va inshootlarning qiymati, ulardan foydalanish xususiyatlari, bu ob'ektlarning maishiy, ishlab chiqarish maqsadlaridaligi, ulardan belgilangan maqsadlarda foydalanishi, ular joylashgan soliq mintaqasi to'g'risidagi va boshqa ma'lumotlar binolar va inshootlar xo'jalik maqomini tashkil etadi;
- binolar va inshootlarning er tuzish sxemalariga, shaxarlar Bosh planlariga, aholi yashash punktlarini joylashtirish loyihalariga, shuningdek me'morchilik va shaxarsozlik talablariga muvofiqligi, binolar parametrlari (qavatlar, umumiy yashash ishlab chiqarish maydonlari), egallab turgan er uchastkasi, qurilgan vaqti, injenerli-texnik kommunikatsiyalarning mavjudligi, seysmik chidamliligi to'g'risidagi va boshqa texnik ma'lumotlar binolar va inshootlarning ma'moriy-qurilish maqomi haqidagi ma'lumotlar hisoblanadi.

Kadastr ma'lumotlari asl xujjatlar yoki davlat organlari qarorlarinig, shartomalarining (oldi-sotdi, hadya qilish, almashtirish, ijaraga olish, renta va boshqalar), bino va inshootlar loyiha-smeta xujjatlarining, ilgari ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi ma'lumotlarning tegishli ravishda rasmiylashtirilgan nusxalari asosida tuziladi.

Davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlar ro'yxatdan o'tkaziladigan xujjatlar va ma'lumotlarning aslligini va ishonchliligini tekshirish, zarur hollarda esa qo'shimcha xujjatlar va ma'lumotlarni, binolar va inshootlar to'g'risidagi asl xujjatlarni taqdim etishni talab qilish, shuningdek binolar va inshootlarni joyida tekshirish va baholash huquqiga egadirlar. Xar bir bino va inshoot kadastr, reestr daftariga muayyan kadastr raqami ostida yozib qo'yiladi. Ob'ektning kadastr raqami uning ko'chmas mulk ob'ektlari va xududlarni kodlashtirishning umum respublika tizimidagi kodidan kelib chiqib belgilanadi. Ob'ektning kodi ma'lumotlarning komp'yuter bazasini unifikatsiyalash hamda yaratish uchun mo'ljallangandir.

Bino va inshootga shaxsiy mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquqlar o'zgargan taqdirda yoxud tugatilganda va paydo bo'lganda ob'ektning ro'yxatdan o'tkazish kodi (raqami) o'zgarmaydi, ob'ektning mulkdorlar yoki foydalanuvchilar o'rtasida bo'linishi, shuningdek u joylashgan er uchastkasi chegaralarining o'zgarish hollari bundan mustasno.

Binolar va inshootlarga egalik huquqi yoxud boshqa ashyoviy huquqlar paydo bo'lganligini, boshqa shaxsga o'tganligini davlat ro'yxatidan o'tkazganlik uchun yuridik shaxslardan eng kam ish haqining yarmi, jismoniy shaxslardan o'ndan bir qismi miqdorida to'lov undiriladi. Egalik huquqi yoxud boshqa ashyoviy huquqlar sub'ektini o'zgartirmagan holda ob'ektning huquqiy xolati o'zgargan tarzda ko'rsatib o'tilgan so'mmalarning yarmi undiriladi. Davlat mulki hisoblangan ob'ektlar bo'yicha ro'yxatga olish ishlari va umuman davlat kadastrini yuritish ishlari davlat byudjeti hisobidan mablag' bilan ta'minlanadi. Binolar va inshootlarga egalik huquqini yoxud boshqa ashyoviy huquqlar to'xtatilganligini yoxud ularni chegaralanganligini davlat ro'yxatidan o'tkazganlik uchun to'lov undirilmaydi.

Bino yoki inshootni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshirgan organ mulkdor yoki u vakolat bergan shaxsga bino, inshootning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomani beradi yoxud ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etilgan xujjatga yozib qo'yadi. Mulkdor yoxud ob'ektga ashyoviy huquqqa ega bo'lgan shaxs, shuningdek ob'ektning huquqiy xolati o'zgargan taqdirda kadastr yoki reestr kitobida bino yoki inshootni qayta ro'yxatdan o'tkazish hollarida bino yoki inshootni davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi yangi guvohnoma beriladi, bunda eski guvohnoma majburiy tarzda olib qo'yiladi va bekor qilinadi. Bino yoki inshootning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma yo'qotilgan yoki buzilgan taqdirda davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshirgan organ tomonidan mulkdorga yoki u vakolat bergan boshqa shaxsga bino yoki inshootning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaning dublikati beriladi. Dublikatni berishda davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik uchun undiriladigan so'mmaning ikkidani biri miqdorida to'lov undiriladi.

1.6. Bino va inshootlar kadastrini yuritishni tashkil etish

Binolar va inshootlarga egalik huquqini yoxud boshqa ashyoviy huquqlar (ularning payo bo'lishi, boshqa shaxsga o'tishi, cheklanishi va to'xtatilishi) haqidagi, shuningdek ob'ektni tavsiflovchi boshqa ma'lumotlar to'g'risidagi ma'lumotlar to'plangan va ro'yxatdan o'tkazilgach bino yoki inshoot kadastr planida belgilanadi. Kadastr plani xaritalar va planlarning 1:100 dan 1:10000 gacha bo'lgan masshtab qatoridan iborat bo'ladiki, bu ro'yxatdan o'tkaziladigan ob'ektlarning ko'rgazmaliligini ta'minlaydi.

Bino va inshootlar ma'lumotlari asosida tuman, shaxar geofondlari yuritiladi. Tuman, shaxar geofondlar-binolar va inshootlarning topografiya-geodeziya, kartografiya, injenerli-geologiya, gidrogeologiya, ekologiya, sanitariya-gigiena, sotsiologiya, loyihalash-planlashtirish, tarixiy-madaniy, stixiyali ofatlar va texnogen falokatlar, texnik inventarizatsiyalanganligi va seysmik turg'unligiga oid zamonaviy va tarixiy geoaxborot ma'lumotlarning majmuidir. Bu majmua davlat kadastrini va boqa davlat tomonidan o'tkaziladigan tashkiliy tadbirlarda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Tuman , shaxar binolari va inshootlari to'g'risidagi kadastr ma'lumotlarining kompyuter bazasi tuman, shaxar binolari va inshootlarining kadastr, reestr kitobiga kiritilgan ma'lumotlari Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shaxri bo'yicha yilning har choragida umumlashtiriladi va bir tizimga keltiriladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shaxrining binolar va inshootlar to'g'risidagi kompyuter kadastr ma'lumotlari bazasida (asosida) O'zbekiston Respublikasi bo'yicha binolar va inshootlar to'g'risidagi kadastr ma'lumotlarining bir tizimga keltirilgan, markazlashtirilgan kompyuter bazasi shakllantiriladi.

Binolar va inshootlarning 31 dekabr xolati bo'yich kadastr ma'lumotlari "O'zgeodezkadastr" bosh boshqarmasi tomonidan har yili tumanlar, shaxarlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shaxri va O'zbekiston Respublikasi bo'yicha nashr qilinadi.

2-BOB. KO‘CHMAS MULK OB’EKTLARINI BAHOLASH

2.1. Bino va inshootlarni baholash

